

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2022 йил 2 сон**



**Бош муҳаррир:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Масъул муҳаррир:** Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

**Масъул муҳаррир ўринбосари:** Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

### ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хақимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник муҳаррир:** *Н.Юсупов*

**Таҳририят манзили:** Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

**Тел:** (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август кунини 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.02.2022 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рўхсат этилган (**Баённома № 2**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



## ПСИХО-ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Умаров Бахтишод Бахридин угли

Преподаватель кафедры «История Бухары» Бухарского государственного университета

Жураев АзизТуроб угли

Магистр химии, Бухарский государственный университет, II курс

*Аннотация:* В данной статье рассматриваются образовательная деятельность и психодидактические основы образовательной деятельности в высшей школе.

*Ключевые слова:* «Внутренние переменные», организационная система, психодидактика, мотивы, учебная деятельность, познавательные способности.

## PSYCHO-DIDACTIC FOUNDATIONS OF STUDENTS 'ACTIVITY IN HIGHER EDUCATION

Umarov Bakhtishod Bakhridin ugli

Lecturer at the Department of History of Bukhara, Bukhara State University

Juraev Aziz Turob ugli

Master of Chemistry, Bukhara State University, II-course.

*Abstract:* This article examines educational activities and psychodidactic foundations of educational activities in higher education.

*Keywords:* "Internal variables", organizational system, psychodidactics, motives, learning activities, cognitive abilities.

## OLIV TA'LIMDA TALABALAR O'QUV-BILUV FAOLIYATINING PSIXODIDAKTIK ASOSLARI

*Annotatsiya:* ushbu maqolada o'quv-biluv faoliyati haqida so'z yuritilib, oliy ta'limda o'quv-biluv faoliyati va uning psixodidaktik asoslari haqida fikr yuritilgan.

*Tayanch so'zlar:* "ichki o'zgaruvchilar", tashkiliy tizim, psixodidaktika, motiv, o'quv-biluv faoliyati, kognitiv qobiliyat.

Ta'limning ichki muhiti, tarkibi va uni tashkilot faoliyatida tutgan o'rini aniqlashda turli mulohazalar mavjud. Ichki muhitni tashkil etuvchi elementlar va ularning tub mohiyatiga yondoshishda Amerikalik olimlar M. Meskon va M. Albert, F. Xedouri ta'lim muassasining boshqarish masalalarini yetakchi hisoblab, bevosita muassasa-oliygoh faoliyatiga ta'sir ko'rsata oladigan omillarni – "ichki o'zgaruvchilar" - deb ataydilar. Jumladan maqsadlar, tashkiliy tizim, vazifalar texnologiya va insonlar ushbu ichki o'zgaruvchilarining asosiy elementlari hisoblanadi[1].

Ushbu yondoshuvga ko'ra oliygoh – aniqlagan, maqsadli insonlar uyushmasidir. Lekin, yagona maqsadga erishish uchun oliygohlar turli sohalar va bo'limlar bo'yicha turlicha maqsadlarni o'z oldilariga qo'yadilar. Masalan, jamiyat va mehnat bozordagi vaziyat, yosh kadrlarni ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalar uchun tayyorlash, o'qituvchilar, rahbar xodimlarni tanlash va tayyorlash kabi sohalar bo'yicha turlicha maqsadlar yuzaga keladi. Ularning muqobil xususiyatga ega bo'lishlari tabiiydir. Shu o'rinda, tashkiliy

tuzilmaga nisbatan maqsadlarni aniqlash katta ahamiyatga ega. Ikkinchi tomondan, tarkibiy tuzilma ichki imkoniyat belgisi sifatida maqsadlarning shakllanishida sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiyaga oid tadqiqotlarda o'quv-biluv faoliyatining tarkibi atroflicha o'rganilgan. Bu esa, o'quv-biluv faoliyati tarkibini didaktik nuqtai nazardan o'rganish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

S.L.Rubinshteyn o'quv faoliyati tarkibiy qismlarini sharhlagan. Har qanday faoliyat motivdan boshlanadi. faoliyatda harakat maqsadga yo'naladi. Insonning ongli faoliyati topshiriqlarni bajarishdan iborat[2].

A.N.Leontyev tadqiqotlarida o'quv-biluv faoliyati tarkibida motiv, maqsad bilan yonma-yon faoliyatning eng kichik birligi sifatida harakat ajratilgan. Motiv va maqsadning bir-biriga mos kelishi faoliyatning xarakterli xususiyatidir. Agar oldingi harakatning maqsadi keyingi harakatni bajarish shartida qatnashsa, unda birinchi harakat ikkinchi harakatni amalga oshirish vositasiga aylanadi[3].

So'ngi yillarda faoliyat tarkibida motiv, maqsad, harakat bilan bir qatorda faoliyat usuli, natijasi ham ajratilgan. K.K.Platonov inson faoliyatini o'zi yashaydigan muhit tarkibida tahlil qilish g'oyasini asoslar ekan Skal, shunday deb yozgan edi: «Inson faoliyati» va «ongli faoliyat» - bu aynan shu insonning atrof-muhit bilan shunday aloqasiki, bunday aloqa jarayonida odam ongli maqsadni amalga oshiradi». Faoliyat maqsadi ikki tomonlama hodisa: u obyektiv aniq hodisa va shu bilan bir qatorda aniqlikni ifodalaydigan ruhiy hodisadir. Agar muayyan faoliyat yaxlit hoida o'ib qaralsa, maqsad lining tarkibiy qismi sifatida ajratiladi. Faoliyatning boshqa tarkibiy qismlari motiv, faoliyat usuli va natijasidir. Binobarin, faoliyatning ko'rinishini «maqsad → motiv → usul → natija» tashkil etadi[4].

Yozef Lingart faoliyatlar tarkibini yanada keng sharhlaydi. Uning qayd etishicha, o'quv faoliyati tarkibi vaqtga taqsimlanganligi bilan xarakterlanadi. Vaqtga taqsimlanganlik faoliyatning dinamik, izchil tarkibini aniqlaydi. Uning paydo bo'lishi umumlashtirish, yo'nalish (ustanovka), his etilgan maqsad va faoliyat dasturiga bog'liq[5].

«Faoliyat,- deb yozgan edi N.F.Talizina, - o'z tabiatiga ko'ra tizimdir. Shu tufayli uni izchil tahlil qilish zarur»[6], U aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga asoslanib, o'quv-biluv faoliyatida maqsad, motiv, obyekt, har qanday harakat va uni amalga oshirish namunasi kabi beshta elementar ajratadi? Psixik ma'nodagi harakat muhim maqsadni taqozo qiladi. Subyektning maqsadi motivga ko'ra amalga oshadi. O'quv harakatlari har doim obyektlarni o'rganish, o'zlashtirishga yo'nalgan bo'ladi. O'quv harakatini amalga oshirayotgan o'quvchi avvalambor bu harakatni ongda bajaradi. O'quv faoliyatining uch qirrasini mavjud: muayyan o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltirilganlik, aniq o'quv topshiriqlarini bajarish va o'quv-biluv faoliyati natijasini nazorat qilish. Bu esa o'z navbatida pedagog salohiyati bilan chambarchas bog'liq.

Pedagog uchun maqsad va motivlar, eng avvalo, pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning maqsad va motivlaridir. Talabalar uchun bular u bilan uchrashadigan aniq tadbirlarning maqsadlari o'qituvchi (sport, o'rganish, bo'sh vaqt va boshqalar). Motivlar faoliyatda va o'qituvchi bilan muloqot olib boriladigan vaziyatlarda qatnashish uchun muhim. Shunga o'xshash maqsad va motivlar (aniq faoliyat va vaziyatlar bilan bog'liq) pedagoglarga xosdir, lekin ular pedagogik maqsad va motivlarga bo'ysunadi, buning uchun o'qituvchi o'zini kasbiy salohiyatini kuchaytirib borishi va rivojlantirib borishi zarur[7].



L.M.Fridman o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tavsiflashga alohida to'xtaladi. U o'quv-biluv faoliyatini tarkibiy qismlariga ko'ra tahlil qiladi. O'quv-biluv faoliyati o'ziga xos mazmunga ega bo'lib, harakatning umumlashgan usullarini egallashga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidir»<sup>80</sup>. Bu qoidada faoliyatning mazmun tomoni bir qadar e'tibordan chetda qoldirilgan. Haqiqatdan ham o'quv-biluv faoliyati faqat muayyan tushunchalarni egallashga yo'naltirilganmi? Yo'q, albatta. U o'zbek xalqining ijtimoiy tajribasi, ilm-fan yutuqlari, jamiyat hayotini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida yo'naltirilmog'i lozim.

Pedagog olimlar orasida o'quv-biluv faoliyatining tarkibiy qismlarini birinchilardan bo'lib G.I.Shchukina tadqiq qilgan edi. U maqsad, motiv, o'quv harakatlari, uni amalga oshirish usullarini o'quv-biluv faoliyati tarkibiy qismlari sifatida izo'laydi. O'quv maqsadi, maqsadga yo'nalganlik o'quv-biluv faoliyati, o'qish-o'rganishning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. O'rganish jarayonining ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga yo'nalganligini dastlab o'qituvchi belgilaydi. Talaba o'quv faoliyati maqsadini anglab yetgach, o'z faoliyatining ijtimoiy xarakterini ham tushuna boshlaydi.

XX asrning 80-yillarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida shakllantirish masalasini O.Roziqov o'rgangan. Faoliyat, bir tomondan, moddiy ashtirilgan shaklda o'quv topshirig'i orqali, ikkinchi tomondan, u talabada shakllantiriladi. O'quv-biluv faoliyatning uch holati farqlanadi: kirish - faoliyatning boshlang'ich holati; davomiyligi - faoliyatni amalga oshirish jarayoni; chiqish - faoliyat natijasi. Natijaga faoliyat yakunida erishiladi.

Ta'lim muassasasining maqsadlari va tashkiliy tuzilmani muvofiklashtiruvchi, bevosita samaradorligini ta'minlovchi omil - bu vazifalardir. Vazifalar - belgilangan maqsadlar asosida ishlab chiqilgan va ijro etish uchun buyurilgan ishlar bo'lib, ular dastavval tayinlangan shaklga va muddatga ega. Birinchi tomondan, vazifalar tashkiliy tuzilmani shakllanishiga ta'sir o'tkazsa, ikkinchi tomondan, tashkiliy tuzilma vazifalarni aniq va izchil bajarilishini ta'minlovchi vosita hisoblanadi.

Ta'limni rivojlantirish texnologiyasi didaktik yordamga ma'lum talablarni qo'yadi. Psixodidaktikada didaktik materiallarni qurishning bir qancha usullari ajralib turadi (I.S. Yakimanskiy):

- qoidalar tavsifi va mavzu materialini taqdim etish;
- idrokni tashkil etishga qaratilgan aqliy faoliyat o'quv materialini (kuzatish, yodlash, tasvirlarni yaratish) va hokazo. Bu yo'l kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asosiy hisoblanadi

- o'rganishni tashkil etish (maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, mulohaza yuritish va boshqalar.). Bu talabning o'z-o'zini tarbiyalashi uchun asosdir;

- operativ nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish. Biz maxsus demoqchimiz aqliy testlar mazmunini o'zlashtirish tekshirish uchun ham ishlatiladi ishlab chiqish, va texnikasi, ta'lim faoliyati usullari[9].

Oliygo'z vazifalarining tub xususiyatlariga ko'ra ularni shartli ravishda 3 sohaga bo'lish mumkin; ta'lim beruvchilar, ta'lim oluvchilar, mehnat predmetlari, axborot bilan bogliq vazifalar.

Demak, ta'lim muassasasining maqsadlari va tarkibiy tuzilma o'rtasidagi bog'liqlik o'zaro aloqada - mutanosiblik vazifalarida uyg'unlashadi. Tashkiliy tuzilmadagi mas'uliyat

<sup>80</sup> Фридман Л.М. Психопедагогика общего образования. -М.: ИПП. 1997. 63 -64 -с.

va mutasaddililik esa vazifalarning amaliy jihatidir[10].

Yana bir muhim "ichki o'zgaruvchi" omil – ta'lim va boshqarish texnologiyalari o'z xususiyatlariga ko'ra keng ko'lamni egallaydi. Hozirgi paytda ko'plab omillar texnologiyani ta'lim beruvchilar, ta'lim oluvchilar, xodimlar, informatsiya, tovarlar va xizmatlarni vujudga keltirish uslubi sifatida e'tirof etadilar.

Texnologiyaning oliygoh faoliyatida tutgan o'rni, uning maqsadlari va vazifalariga ta'siri beqiyosdir. Texnologik taraqqiyot va uning tashkilotni boshqarishdagi ahamiyatiga oid masalalar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Hozirgi paytda olib borilayotgan yirik tadqiqotlar xalqaro ko'lamda hal qilinmoqda. Bundan tashqari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamda boshqa xodimlar omili ta'lim muassasalaridagi boshqaruv masalalarini hal etishdagi rolini alohida insonlar atvori, guruhlar ichida insonlarning harakati, munosabatlari, rahbarning atvoriy qobiliyati ko'lamlarida ko'rib chiqish mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchilar atvoridagi o'zgarishlarga muhitning qay darajada shakllanganligi, qay darajadagi mutanosiblikda rivojlanayotganligi ham ta'sir o'tkazadi. Xususan, oliygohdagi muhit va uning atvoridagi o'zgarishlarga ta'siri, guruhlar va maslakdosh jamoaning vujudga kelishi, peshqadamlik kabi ichki inson omillarining turlicha tarzda rivojlanishini belgilaydi. Ushbu nuammolar boshqarish ilmida kengroq va atroflicha o'rganiladi.

Demak, yuqorida qayd etilgan barcha "ichki o'zgaruvchilar" muassasaning "ichki kuchlanish quvvatini" ifodalovchi o'zaro bog'liqlik, va doimo aloqada bo'lgan mushtarak elementlar sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. М.Мексон, М.Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М.1997. С.101
2. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. - М.: Педагогика, 1976. 186-187-с.
3. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. 3-е изд. -М.: Наука, 1972. - с.562
4. Платонов К.К. О системе психологии. - М.: Мысль. 1972. 151 -с.
5. Лингарт Й. Процесс и структура человеческого учения. Пер. с чешек. -М.: Прогресс, 1970. - С.68.
6. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоением знаний. -М.: изд. МГУ, 1975. 29-30-с
7. Поляков С.Д. Психопедагогика школы. –М.: «Педагогический поиск» 2011. –С. 36.
8. Фридман Л.М. Психопедагогика общего образования. -М.: ИПП. 1997. 63 -64 -с.
9. Пешкова В.Е. Педагогика. -Майкоп.: 2010. –С. 116.
10. Mansur Ergashov, Aziz Jo'rayev. Organik kimyo fani ta'limida zamonaviy metodlardan foydalanish orqali talabalarda interaktivlikni oshirish // Pedagogik mahorat: Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. №3. 2021.
11. Умаров Б.Б. Буюк олим Н.А.Кисляковнинг педагогик фаолиятига назар. 2020. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 1 (1)
12. Жураев Азиз Туроб угли. Развитие базовых знаний в процессе обучения // Universum: теория и методика обучения и воспитания: электрон. научн. журн. 2021. № 9(87). URL: <http://7universum.com/ru/psy/archive/item/12235> .



106	<b>Изучение особенностей разговорного стиля речи и речевого этикета медицинского работника</b> Мамаджанова М.Р .....	557
107	<b>Advantages use of bricklink studio program in robototechnics circles in primary school</b> Buronova G.Y .....	562
108	<b>Амалий санъатни ривожланишида устоз-шогирд анъаналарининг ўрни</b> Абдуллаев А.Х. ....	568
109	<b>Application of digital technologies in modern education</b> Muradova F.R .....	574
110	<b>Миллий мактабларда антонимларни ўрганишда рус тилини ўқитишнинг замонавий амалиёти.</b> Турдиева Д.М. ....	579
111	<b>Хорижий тилларни ўргатишда ёзув саводхонлик даражасини ривожлантириш техникалари</b> Мустафаева Н.У .....	586
112	<b>Сомонийлар давридаги илм фан ва маданият</b> Жумабобоев Н.П .....	591
113	<b>Психолингвистика нуқтаи назаридан мақсадли гуруҳни ўқитишда замонавий ёндашуви</b> Мусаева Ф.А .....	596
114	<b>Баскетбол дарсларида ўқув жараёнини оптималлаштириш</b> Рахимов М.Ф .....	601
115	<b>Имконияти чекланган ўқувчиларни волейбол ўтиришга ўргатишда motor техникасини такомиллаштириш</b> Тилопова Л.Д .....	605
116	<b>Лойиҳа таълим технологияси асосида туризм йўналиши талабаларида мулоқотчанлик кўникмаларини ривожлантириш</b> Турдиева Н.М., Эгамбердиева Н.М .....	611
117	<b>Психо-дидактические основы деятельности студентов в высшем образовании</b> Умаров Б.Б., Жураев А.Т .....	617
118	<b>The strategies of learning english vocabulary among foreign language learners</b> Kuziyev S.I .....	621
119	<b>Создание ситуации успеха при индивидуальном подходе к ученикам на уроках изобразительного искусства</b> Хайров Р.З .....	626
120	<b>Кимё тарихи курсида “қора металллар ишлаб чиқариш тарихи” мавзусини ўрганиш</b> Нишонов М., Иброхимов А.А .....	631
121	<b>Имконияти чекланган талаба қизларни сараланган махсус жисмоний воситалар ёрдамида жисмоний тайёргарлигини РИВОЖЛАНТИРИШ самарадорлиги</b> Абдиев Ш.А., Собирова Л.Б. ....	637